

October, 30th 2021

BUGUN O`ZBEKISTON YOSHLARI BIRLASHDIK

Abduvohidova Shahribonu Akmalovna

Samarqand davlat chet tillar instituti
princess13082001@gmail.com

Annotatsiya: Maqlada O`zbekiston yoshlariga va ularning qiziqishlari, mashg`ulotlarini o`zaro kuch sinashishlari va tajriba almashishlari uchun tashkil etilgan “Biz O`zbekiston yoshlari birlashdik” shiori ostidagi Yoshlar festivali va uning mazmun mohiyatini kengroq ochib berish va fikr mulohaza yuritishga bag`ishlandi. Yoshlarning bilim va ko`nikmalarini bir joyga jamlash maqsadida uyushtirilgan festival tafsilotlariva uning tub manosini ochib berish va boshqalarga yetkazish maqsad qilindi.

Kalit so`zlar: yoshlar, festival, o`zbekiston yoshlari, biz o`zbekiston yoshlari birlashdik, bilim va ko`nikmalar, qiziqishlar, sport marafoni, chet ellik yoshlar, tajriba almashish.

Bugungi kundagi pandemiya sharoitida butun dunyo kasallik bilan kurashayotgan bir paytda, kupchilik muammo va qiyinchiliklarga qaramasdan O`zbekistonda yoshlar va ularning talim tarbiyasiga bo`lgan e`tibor zigircha kamaygani yoq. Aksincha, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o`tgan 2020-yil takidlab o`tgan”yoshlarga oid davlat siyosatidagi tub burilish”ning davomi sifatida munosib davom etmoqda. Mamlakatimizning kelajagi bo`lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatl shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi kunlarda ham o`ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Zero, masofaviy ta`lim, onlayn rejimida uzlusiz tashkil etilgan holda yoshlarning bilim olish huquqini ta`limda ta`minlaganining o`zi O`zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta`lim-tarbiya va ko`rsatilayotgan g`amxo`rlik, e`tiborning amaliy ifodasidir.

Hechkimga sir emaski, yurtimiz eng baxtli yoshlar mamlakatidir. Vatanimiz aholisining 64% ni 30 yoshgacha bo`lgan yoshlar tashkil qiladi, shunday ekan, bu davlatimiz zimmasiga ulkan mas`uliyat yuklashini ko`z oldimizga keltirsak, juda katta e`tibor, g`amxo`rlikni talab etadi, boshqa tomondan esa yoshlarimizga ko`rsatiladigan e`tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham berishiga aminman. Zero, bizning davlatimiz bayrog`ini yuksaklarga ko`ltarib uning ravnaqi yulida jon berishdan toymaydigan har bir yetuk shaxs mana shu yoshlar orasida yetilib chiqadi.

Shu bois, mamlakatimizda eng katta e`tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan bo`lib, bu vazifa O`zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida”gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O`zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O`zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo`llab-quvvatlash to`g`risida”gi PF-5106-son, 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o`rta, o`rta maxsus va kasb-hunar ta`limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-5313-son farmonlari, shuningdek, ko`plab qaror va yoshlarga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan. Ayniqsa, bu borada yurtimizda Prezidentimizning beshta muhim tashabbus bilan bog`langan 3 kunlik dastur asosida o`tkazilgan Toshkent viloyati hokimligi va hamkor vazirlik-tashkilotlar tomonidan Chirchiq shahridagi 104 hektar maydonda «Yangi O`zbekiston yoshlari, birlashaylik!» shoiri ostidagi yoshlar festivali yurtboshimiz takidlab o`tgan tub burilishning yaqqol namunasidir.

Festival doirasidagi quyilgan rejalar va say-harakatlar zamirida bir maqsad yotadi, yoshlarning kelajakda yetuk kAadr bulib yetishishi va jamiyatda o`z o`rnini egalashga imkod yaratish. Bot-bot takrorlanib kelinayotgan jumalalarga qulqoq tutsak ular ko`p narsalarni anglatadi, “Har bir ota-on, har bir xonodon, har bir mahalla, bugungi kunda farzandlarimiz ta`lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo`lgan salbiy ta`sirlardan himoya qilish, millat

October, 30th 2021

va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz, ham farzdir. Zero, inson hayoti odob-axloq, ta'lim-tarbiya bilan bevosita bog'liq".

Fistrival tafsilotlari haqida batapsil keltirib o'tsam, uning juda keng miqyosidagi yo`nalishlarni qamrab olgani hayratlanarli. Jumladan, yoshlard festivalida, harbiy texnika ko`rgazmalari va uyuştirilgan harbiy parad yoshlarning harbiy salohiyatini va qiziqishini ortishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, », liboslar dizayni ko`rgazmalari, taniqli biznes yuritish bo'yicha mutaxassislar va blogerlardan mahorat darslari, teatr sahna ko'rinishlari, milliy madaniyat markazlar vakillarining chiqishlari, rassomlar maydonchasi, hunarmandlar rastalari, bolalar maydonchasi, sirk, dorbozlar, baliq ovi, hayvonot bog'i, mehnat yarmarkasi, sport maydoni, «Bilimdon shou», tadbir kurkiga kurk qushdi desam mubolag'a bo`lmaydi. Festivalda sportning 23 ta turi (boks, karate, qilichbozlik, shaxmat, yunon-rum kurashi, erkin kurash, badiiy gimnastika, dzyudo, kurash, stol tennisi, og'ir atletika, o'zbek jang san'ati, badminton, belbog'li kurash, Street workout, armrestling, bahodirlar o'yinlari va tosh ko'tarish, kamondan otish, turon yakka kurashi, sambo, marafon hamda velomarofon) bo'yicha ko'rgazmali chiqishlar hamda sport turlari bo'yicha «Viloyat hokimi kubogi» sport musobaqalarining saralash bosqichlari tashkil etildi, Yoshlar festivaliga jalb etilganlar 75 ming nafar aholini tashkil etib undan ko`p qismini yoshlardan tashkil etdi. Bundan tashqari, kam taminlangan oilalar bolalari va mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining Sunnat tuylari utkazildi. Yoshlar festivali oqshom bo'sag'asida yanada qizg'in tus oldi. Katta sahnada harbiylar paradi tashkil etildi. Shundan so'ng estrada yulduzlari ishtirokida badiiy qism boshlandi, Katta sahna oldida varraklar sayli tashkil etildi...

Qisqa qilib tasvirlasak, bu festival yoshlardan hayotidagi yaltiragan bir gavhar kabi tovlanib atrofdagi butun yoshlarni o`z nuridan baxramand qildi, kelajaldagi orzulariga yanaba yaqin bo`lishlariga zamin yaratib, bir qadam oldinga chorladi desak mubolag'a bo`lmaydi. Yuqorida qayd etganimdek, bu tadbir nafaqat tashabbuskor O'zbekiston yoshlarini jalb qildi balki ko`plab mashhur sportchilar yulduzlar dunyoda o`z urniga ega bo`lgan chet ellik yoshu qarini qiziqtirib o`z hissalarini qo`shishga sababchi bo`ldi.

Men ishonaman, bir kun kelib shu unib o`sib kelayotgan O'zbekiston yoshlari shunday hurmat va etibor qaratilsa va jamiyatimiz tomonidan qo'llab quvvatlansa, kelajakda buyuk davlatning poydevorlari. Mustahkam ustunlariga aylanishadi. Shunday ekan biz yoshlardan harakat va intilishda to`xtamasligimiz o`z sohamiz komilligiga yunalib shahdam qadam tashlashimiz shart va bu Vatanimiz oldidagi burchimiz. Mana bugun, "BIZ O'ZBEKISTON YOSHLARI BIRLASHDIK VA BIRGALIKDA YENGILMAS KUCHDIRMIZ"

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. «Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!» festivali 3 kun ...<https://yuz.uz/news/yangi-yoshlari-birlashaylik-festivali-3-kun>...
2. <http://yoshlar.gov.uz/news>
«YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK ...
4. <https://mv-vatanparvar.uz/> ...
- Toshkentda "Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik" shiori ...
- <https://uzreport.news/sports>
Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!
- <https://www.navstat.uz/6430...>
- Festival yangi O'zbekiston yoshlarini birlashtira oladimi ...
- <https://qalampir.uz/news/fe...>
- "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida yoshlardan ...
- <http://navoiy.uz/navoiy/28...>
- Toshkentda "Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik" shiori ...
- <https://uzreport.news/sports>